

## **THIRD RENAISSANCE WILL BEGIN FROM EDUCATION AND UPBRINGING**

**Khusanova Madinakhon Askarovna,**

Teacher of Andijan region public education  
retraining of employees and their Regional Center  
for Professional Development

**Annotation:** The article deals with the development of a harmoniously developed generation in line with our ancestors through the development of education and upbringing in our country in accordance with the New Uzbekistan Development Strategy and the Third Renaissance Concept.

**Keywords:** global change, the Third Renaissance, science and education, culture, the Eastern Renaissance, development strategy, institutes, teachers.

Xozirgi kunda dunyo hamjamiyatida bo`layotgan global o`zgarishlar natijasi o`lar oqchilik va qurq`oqchilik bo`lib, ushbu mintaqada yashovchi insonlar ocharchilikdan azoblanayotgan bo`lsa, ba`zi mintaqalarda esa urush va nifoqlar natijasida millionlab insonlar boshpanasiz muxojirlikda sarson sargardon bo`lib kun kechirishga majbur bo`lmoqda. Dunyoning ba`zi bir mintaqasida iqlim o`zgarishi natijasida suvsizlik va qurq`oqchilik bo`lib, ushbu mintaqada yashovchi insonlar ocharchilikdan azoblanayotgan bo`lsa, ba`zi mintaqalarda esa urush va nifoqlar natijasida millionlab insonlar boshpanasiz muxojirlikda sarson sargardon bo`lib kun kechirishga majbur bo`lmoqda. SHunday tahlikali bir davrda dunyoning ba`zi mintaqalarida tinchlik osoyishtalik hukm surib ushbu mintaqada davlatlarida fan-ta`lim, madaniyat rivojlanib taraqqiy etib bormoqda. Jumladan, bizning mamlakatimizda ham fan-ta`lim, madaniyat va ma`naviyat taraqqiy etib, o`sib kelayotgan yoshlarimizni har tamonlama barkamol va komil inson bo`lib voyaga yetishlari uchun Prezidentimiz boshchiligidagi ko`plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Muxtaram prezidentimiz tomonidan mustaqilligimizning 29 yilligi munosabati bilan xalqimizga yo`llagan tantanali tabriklarida ertangi taraqqiyotimizning bosh maqsadi Uchinchi Renessans bo`lishi lozimligini ta`kidlab o`tdi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g`oya o`zining ulug`vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiylar maqsadni ko`zlamog`i zarurligini ko`rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O`zbekiston milliy g`oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi. [1;9]

Binobarin, bugun SHarq uyg`onish davri bo`lgan IX-XII asrlarda dunyo ilmu – fani rivojiga ulkan xissa qo`shgan mutafakkir allomalar yetishib chiqqan bo`lsa, Ikkinchchi renessans davri esa XIV – XV asrlarni o`z ichiga oldi. Dunyo ilm – fan tamadduniga va rivojiga katta xissa qo`shgan ajdodlarimizga munosib bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan Uchinchi Renessans g`oyasini avvalo, biz va jamoatchilik chuqur va teran anglab olishimi kerak. SHu boisdan, ham bugun mamlakatimizning ijtimoiy – siyosiy, ma`naviy – ma`rifiy, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishida avvalo ta`lim-tarbiya tizimiga katta e'tiborni qaratmog`imiz darkor. Ayniqsa, maktab ta`limini yanada takomillashtirib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarish borasida ko`plab amaliy ishlardan qilinishi lozim bo`lib, bu borada samarali va foydali ishlardan amalga oshirilmoqda.

Binobarin, 2022-yil 28-yanvar kuni O`zbekiston Prezidentining 2022–2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi to`g`risidagi farmoni imzolandi. Yangi O`zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo`nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan bo`lib, 2022-yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarga 55 trln so`m va 11,7 mlrd dollar ajratilishi ko`zda tutilayotganligi bu boradagi ishlardan qilinishi lozim bo`lib, bu borada samarali va foydali ishlardan amalga oshirilmoqda. [2]

Taraqqiyot strategiyasining To`rtinchi yo`nalishi: adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlanib, ushbu yo`nalishda 33ta maqsad belgilab olingan. Belgilab olingan 33ta maqsadning qariyb 13 tasi aynan ta`lim tizimiga qaratilayotganligining o`zi ham mamlakatimizda barkamol komil insonni tarbiyalashga nechog`li e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Jumladan, ushbu maqsadlarda maktabgacha ta'limdan tortib, maktab ta'limi tizimida 2022-2026 yillarda ta'lim va tarbiya sifatini yanada oshirish borasida olib boriladigan ishlar maqsadi belgilab olingan. Binobarin, 41-maqсад: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o`quvchi o`rni yaratishga qaratilgan bo`lsa, 42-maqsadda esa 2026- yilga qadar o`quv dasturlari va darsliklarni ilg`or xorijiy tajriba asosida to`la qayta ko`rib chiqib, amalda joriy etishni nazarda tutadi. Maktabda ta'lim va tarbiyani rivojlantirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda, avvalo, o`qituvchilarning moddiy sharoitini yaxshilash darkor bo`ladi. Taraqqiyot strategiyasining 43-maqsadi aynan malakali o`qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSH dollarini ekvivalentiga yetkazishni ko`zda tutadi. O`z navbatida, o`qituvchi-pedagoglarning oylik maoshlarini 1000 AQSH dollariga yetkazish ulardan zamonaliv,barkamol komil insonni chiqarishni talab etadi. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish 44-maqsadda o`z aksini topgan. Jumladan, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog- kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqishga alohida ahamiyat qaratilgan. Bu borada esa pedagog-kadrlarning bilim saviyasini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishda xalq ta'limi xodimlarini qayta taylorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini zamон talablari asosida takomillashtirib borishni taqozo etadi. O`z navbatida pedagog-kadrlarni qayta taylorlash va malakalarini oshirishlarida xalqaro stantartlar va xalqaro tajribalarga mos "hayot davomida o`qish" tamoyiliga asoslangan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy –tadqiqot faoliyatini qo'llab –quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora tadbirlari to`g`risida "gi PQ-4963-son qarori [3] ijrosini ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to`g`risida"gi 25-sonli qarori qabul qilindi.[4] Qarorga binoan endi har bir pedagog hodim har yili makakasini oshirib borishi shart va majburiy etib belgilandi.Bu tizimni baholashda kredit-modul shakli joriy etildi.

Pedagog-kadrlarning malakasini oshirib borish bilan bir qatorda, o`quvchilarning jismonan sog`lom bo`lishligi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ekologik iqlim o`zgarishlarining kuchayib borishi Orol bo`yida yashovchi aholining sog`lig`iga salbiy ta`sirini ko`rsatmoqda. Orol bo`yi hududlarida ekologik muvozanatni saqlash bilan bir qatorda, mintaqada boshlang`ich sinf o`quvchilarini bepul issiq ovqat bilan ta`minlash ham 45-maqsadda ko`zda tutilgan. Qoraqalpog`iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang`ich sinf o`quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta`minlash nazarda tutilgan.[5]

Yuqorida fikrlardan xulosa qilib aytak, Uchinchi Renessansni amalga oshirishda Taraqqiyot strategiyasining 4-yo`nalish adolatlari ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishdagi ta'limga yo`naltirilgan maqsadlarning amalga oshishi ta'lim sifat va samaradorligining oshishiga va bu davlatimizning tezroq rivojlanishiga asos bo`la oladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev.SH. Yangi O`zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O`zbekiston", 2021.-B.9.
2. Inson qadri, halollik standartlari, pragmatik tashqi siyosat. Yangi O`zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 100 maqsadi //[https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm\\_source=push&utm\\_medium=chrome](https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm_source=push&utm_medium=chrome)
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy –tadqiqot faoliyatini qo'llab –quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora tadbirlari to`g`risida "gi PQ-4963-son qarori. //<https://lex.uz/docs/-5239538>
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to`g`risida" 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori. //<https://lex.uz/ru/docs/5828765?ONDATE=18.01.2022%2000>
5. Inson qadri, halollik standartlari, pragmatik tashqi siyosat. Yangi O`zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 100 maqsadi //[https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm\\_source=push&utm\\_medium=chrome](https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm_source=push&utm_medium=chrome)